

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**MUTAXASSISLIK FANLARI BO'YICHA MAGISTRATURAGA
KIRISH SINOVLARI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**5A120304 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi uchun**

Buxoro – 2021

Annotatsiya

Dastur 5A120304 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari (mamlakatlar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5120300 – Tarix (mamlakatlar va yo’nalishlar bo‘yicha) yo‘nalishining 2017/2018-o’quv yilida tasdiqlangan o’quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:

H.H.To‘rayev – BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi professori, t.f.d

F.U.Temirov – BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi mudiri, t.f.f.d, (PhD)

Taqrizchilar:

F.Bobojonova - BuxDU Buxoro tarixi dsenti, t.f.n

D.M.Jamolova - BuxDU Buxoro tarixi o‘qituvchisi, t.f.f.d, (PhD)

O.A.Qlichev - BuxDU Buxoro tarixi o‘qituvchisit.f.f.d, (PhD).

Dastur Buxoro davlat universitetining 2021 yil 3 iyuldaggi 19 sonli Kengashida ko’rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

Ushbu dastur 5A220204 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari (mamlakatlar bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga kirish sinovi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda qo‘yilgan masalalar ta’limning oldingi bosqichlarida mazkur mutaxassislikka doir o‘qitilgan fanlarning o‘quv dasturlariga asoslangan. Dasturda Tarix fanining vujudga kelishi va o‘tmishni o‘rganishdagi dastlabki malakalar. Tarixni o‘rganishda asos bo‘luvchi manbalar haqida tushuncha. Tarixiy manbalar va tarixiy xujjatlar bilan ishslash. Tarixning boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabatlari-ijtimoiy va gumanitar fan davriy jarayoni haqida tushuncha. Arab, fors, tilidagi qo‘lyozmalar va ularning tarix fanining rivojlanishidagi o‘rni. O‘rta Osiyo haqidagi antik davrdagi olimlar asarlarining tadqiq etilishi. 1990 yillarning boshida tarixni o‘rganishning yangi nazariy-metodologik asoslarini izlashga urinishlar. Tarixshunoslikning dolzARB muammolari: nazariy-metodologik masalalarni ishlab chiqish. Tarixshunoslik fani rivojlanishi muammolari.

XX asr boshlarida tarix fani rivojining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari. Manbashunoslik, arxeografiya, arxeologiya, etnografiya, maxsus va yordamchi tarix fanlarining rivojlanishi. O‘zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlari rivojlanishining asosiy tamoyillari kabi masalalar qamrab olingan.

Asosiy qism

1. Manbashunoslik

Manbalarni turkumlash

Tarixiy tadqiqot uchun manbalarni turkumlashning ahamiyati. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar: manbalarni mazmuniga, kelib chiqishiga va yo‘nalishiga qarab ajratish. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari: moddiy yodgorliklar, ma’naviy yodgorliklar. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlarga bo‘linishi: moddiy (ashyoviy) manbalar; etnografik manbalar; lingvistik manbalar; og‘zaki manbalar (folklor). Yozma manbalar. Yozma manbalarning asosiy xillari. Adabiy manbalar (yilnomalar, xronikalar va h.k.). Epik yodgorliklar. Aktlarga oid hujjatlari (yorliqlar, aktlar, xatlar, yuridik-qozixona hujjatlari va b.). Arxiv manbalari. Normativ va ijroiya hujjatlari; statistik materiallar tarixiy manba sifatida. Jamoat tashkilotlari hujjatlari tarixiy manba sifatida. Diplomatik hujjatlari; memuarlar; davriy matbuot.

Manbalarni o‘rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilish

Manbashunoslik sohasidagi tadqiqot. Manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariga qarab tahlil qilish. Manbalarni umumiylaysavsiflash va alohida bir manbani tadqiq etish. Matnni aniqlash. Asl manba. Manba yozilgan davr va joy, unda tarixiylikning in’ikosi. Manbaning yaratilish tarixi shart-sharoit va undagi tarixiy haqqoniylilik

mezoni (hujjatlarda tarixiylik deyarli real aks etgan bo‘ladi). Asl manbadan ko‘chirilgan nuxxalar. Nusxalarning asl manbaga yaqinligini aniqlash muammolari. Tarixiy manba haqida umumiy xulosalar chiqarish.

Sharq qo‘lyozmalari xazinalari

Qo‘lyozma asarlar tarixidan va ularning hududiy qamrovi. Arab tilidagi yozma meros va uning tarqalishi. Qo‘lyozmalarning jahon bo‘ylab tarqalish sabablari. Sharq qo‘lyozmalarining Yevropaga tarqalishi. Sharq qo‘lyozmalarining turli mamlakatlardagi miqdoriy ko‘rsatkichi. Qo‘lyozmalar xazinalari: Misr, Eron, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, O‘zbekiston. Sharq qo‘lyozmalarini tavsiflash va kataloglar chop etilishi tarixidan. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo‘lyozmalari xazinasi haqida umumiy ma’lumotlar. O‘zbekiston Milliy universitetida saqlanayotgan qo‘lyozmalar ko‘lami haqida.

O‘rta Osiyoning IX-XIII asrlar tarixiga oid yozma manbalar

O‘rta Osiyo tarixi IX-XV asrlarda yozilgan arab tilidagi qator yozma manbalarda aks etgan. Jumladan: al-Madoiniy «Axbor al-xulafo», al-Ya’qubiy «Kitob al-buldon», Balazuriy «Kitob futuh al-buldon», Tabariy «Tarix ar-rusul va-l-muluk», Ibn Fazlon «Risola», al-Mas’udiy «Muruj az-zahab», Utbiy «Tarixi Yaminiy», Abu Abdulloh al-Xorazmiy «Mafotih al-ulum», Abu Rayhon Beruniy «Osor al-boqiya», Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘at at-turk», Sam’oniyy «Kitob al-ansob», Ibn al-Asir «Al-Komil fi-t-tarix», Yoqut Hamaviy «Mu’jam al-buldon», Muhammad Nasaviy «Sirat as-sulton Jaloliddin», Jamol Qarshiy «Mulhaqat as-suroh». O‘rta Osiyo IX-XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy «Buxoro tarixi», «Hudud ul-olam», Nizomulmulk «Siyosatnama», Nizomi Aruzi Samarqandiy «Chor maqola», Gardiziyy «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiy «Tarixi Mas’udiy», Avfiy «Javomi’ al-hikoyot», Juvayniy «Tarixi jahongushoy» tarixiy asarlari haqida ma’lumotlar.

Temuriylardavri tarixiga oid yozma manbalar

Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalarning xususiyati. Rashidaddin «Jome’ at-tavorix», Hamdaloh Qazviniy «Tarixi guzida». Temuriylar sultanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar: Nizomiddiy Shomiy «Zafarnoma», Muiniddin Natanziy «Muntaxab at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiy «Matla as-sa’dayn», Mirxon «Ravzat as-safo» va boshqa asarlardagi ma’lumotlar.

O‘rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid yozma manbalar

O‘rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid manbalar asosan fors-tojik tilida bitilgan. Bu davrdagi yozma manbalar sirasiga Mulla Shodiyining «Fathnama», Fazlulloh ibn Ruzbexonning «Mehmonnomai Buxoro», Xondamirning «Habib as-siyar», Zayniddin Vosifiy «Badoye’ ul-vaqoye’», Mirzo Muhammad Haydar «Tarixi Rashidiy», Hofiz Tanish Buxoriy «Abdullanoma»,

Mahmud ibn Valiy «Bahr ul-asror», Xoja Samandar Termiziy «Dastur al-muluk», Muhammad Yusuf Munshiy «Tarixi Muqimxoniy», Mir Muhammad Amin Buxoriy «Ubaydullanoma», Abdurrahmon Davlat «Tarixi Abulfayzxon» va o‘zbek tilidagi «Tavorixi guzida» («Nusratnoma»), Muhammad Solih «Shayboniynoma», Zahiriddin Bobur «Boburnoma» kabi asarlardagi ma’lumotlar.

O‘rta Osiyoning XVII-IX asrlar tarixiga oid yozma manbalar

Bu davrdagi manbalarga Mir Muhammad Salim «Silsilat as-salotin», Muhammad Vafo Karminagiy «Tuhfai xoniy», Mir Olim Buxoriy «Fathnomayi sultoniy», Axmad Donish «Navodir al-vaqoye», Abduazim Somiy «Tarixi salotini mang‘itiya», Mirzo Salimbek «Tarixi Salimiyy», Muhammad Solih «Tarixi jadidayi Toshkand», Niyoz Muhammad Xo‘qandiyingning «Tarixi Shohruxiy» asarlarini kiritish mumkin.

Mazkur asrlar tarixiga oid eski o‘zbek tilidagi yozma manbalarga esa, muallifi noma’lum Abulg‘ozzi Bahodurxon «Shajarayi tarokima», «Shajarayi turk va mo‘g‘ul», Munis va Ogahiy «Firdavs ul-iqbol» va Mirzo Olim Toshkandiyining «Ansob as-salotin» asarlari misol bo‘la oladi.

XVII-XVIII asrlar rus va yevropa tillaridagi manbalarda O‘rta Osiyo tavsifi

O‘rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan Yevropa tillaridagi yozma ma’lumotlar sayyoh va elchilarning kundaliklarida uchraydi. Masalan, Marko Polo, Rui Gonsales de Klavixo va Antonio Jenkinson kundaliklari. Shuningdek, XVII-XVIII asrlar rus va yevropa tillaridagi manbalarda O‘rta Osiyo tavsifi I.D.Xoxlovnning ma’lumotlarida («Kniga Bolshomu cherteju»); B.A.Pazuxin va S.I. Pazuxin ma’lumotlarida; Florio Benevini axborotida; V.N.Tatishev «Leksikon geograficheskoy i politicheskoy»; D.Gladishev va Muravin ma’lumotlarida; F.Yefremov safarnomasi, T.Burnashevning O‘rta Osiyoga safari xotiralari; F.Nazarov safarnomasi; N.Muravyev ma’lumotlari; Ye.K. Meyendorf safarnomasida uchraydi.

O‘rta Osiyo tarixiga oid Rossiya sharqshunoslari tadqiqotlari manba sifatida va yevropa tillaridagi yozma manbalar

O‘rta Osiyo tarixiga oid Rossiya sharqshunoslari tadqiqotlari sirasiga G.Spasskiyning «Aziatskiy vestnik» materiallari, “Turkiston arxeolog havaskorlari to‘garagi”, “Kesh arxeologik-topografik ekspedisiya”si kabi ilmiy jamolar tomonidan muntazam nashr etilgan to‘plamlar va boshqalarda e’lon qilingan maqolalar kiradi. Rossiya Sharqshunoslari tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda O‘rta Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan istilo qilinishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi tarixi kabi masalalar bayon qilingan.

Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari (O‘zR MDA)

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari ham O‘rta Osiyo tarixiga oid manba bo‘la oladi. Bunda Turkistonni o‘rgangan rus olimlarining asarlari, Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi materiallari tarixiy manba sifatida qo‘l keladi. Shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonga oid statistik ma’lumotlar, arxiv materiallar va davriy matbuot («Turkestanskiye vedomosti», «Turkestanskiy vestnik»va b.) xabarlari tarixiy manba sifatida o‘rganiladi.

O‘zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar

Rossiyadagi fevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar, Oktyabr voqealaridan keyin Turkistonda Sho‘rolar hukumati tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog‘liq manbalar, Sovet hokimiyatining dekretlari, Sovetlar s’yezdlarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari manba sifatida. Turkistonda muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakati tarixiga oid hujjatlar tarixiy manba sifatida. O‘rta Osiyoda milliy chegaralash tarixiga oid hujjatlar, O‘zbekistonning 1925-1941 yillardagi tarixini yorituvchi manbalar; qatag‘onlar tarixi aks etgan hujjatlar, 1941-1945 yillar urushi tarixiga oid materiallar, O‘zbekistonning 1945-1991 yillardagi tarixiga oid hujjatlar, shuningdek, statistik to‘plamlar va ish yuritish hujjatlari O‘zbekistonning XX asr tarixiga oid muhim tarixiy manba sifatida.

O‘zbekistonning mustaqillik yillari tarixiga oid manbalar.

Mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishiga oid materiallar. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov asarlari mustaqil O‘zbekiston tarixi bo‘yicha asosiy manba. O‘zbekistonda demokratik davlat tizimini barpo etishga doir hujjatlar tarixiy manba sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni nashrlari, O‘zbekiston Oliy Majlis hujjatlari muhim tarixiy manba. Mustaqillik davri turli hujjatlari, statistik ma’lumotlar, nashr materiallari, matbuot materiallari va boshqa ma’lumotlar tarixiy manba sifatida. Tarixiy manbalarni o‘rganish yuzasidan hukumat rasmiy hujjatlari. Tarixiy manbalarni to‘plash va saqlash.

2.Tarixshunoslik

Tarixshunoslik fani va uning vazifasi

Tarixfaniningvujudgakelishivao‘tmishnio‘rganishdagidastlabkimalakalar. Tarix fanining tarkibiy qismlari. Tarix bilimlarini rivojlanishi va o‘zgarishlarini aniqlovchi omillar. Tarixfanidagiizchillik. Tarixfanidagi mакtablar.

«Tarixshunoslik» atamasi. Tarixshunoslikning ob’yekti, predmeti va vazifasi. Tarixshunoslik tarix fanining maxsus sohasi va o‘quv fani sifatida. Tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari.

Tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari. Qiyosiy tarixiy usul. Aniq tahliliy usul. Mantiqiy tahliliy usul. Xronologik usul.

Davr iylashtirishusuli. Ryetrospektiv tahlil. Tadqiqotlarda mavzuning o‘rganilish darajasini tadqiq qilish. Tadqiqotlarni davrlashtirish.

XX asrning 90-yillarida O‘zbekiston tarixshunoslik fani rivojida yangi davrning boshlanishi. Nazariy-metodologik masalalarining ishlab chiqilishi. Ilmiy maktablarning shakllanishi. O‘zbekistonda tarixshunoslik fani va tarix fanidagi metodologiyalar. Mustaqillik davridagi o‘zgarishlar. Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarix fani metodologiyasini va tarix fani konsepsiyasini ishlab chiqarishdagi roli,

O‘zbekistonda qadimgi davr tarixining o‘rganilishi

O‘zbekistonning qadimgi tarixi tarixshunosligi. O‘zbekistonning qadimgi davr tarixi haqida umumiylumot, uning o‘ziga xos tomonlari. O‘zbekistonning qadimiy tarixiga oid arxeologik tadqiqotlar. Qadimgi numizmatik tadqiqotlarni o‘rganish.

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rustam, Doro I, Ayritom bitiklari)ningo‘rganilishi. Avesto, Qadimgi Hind manbalariga doir tadqiqotlar.

O‘rta Osiyo haqidagi antik davrda yaratilgan asarlarining tadqiq etilishi.

O‘zbekistonda o‘rta asrlar tarixining o‘rganilishi

O‘zbekistonda qadimgi va o‘rta asrlar tarixining o‘rganilishi

Sharq qo‘lyozmalari va ularning dunyo sivilizasiya tarixidagi o‘rni. O‘rta asrlar tarixnavisligining xalq ijodiyoti, an’analari bilan uzviy bog‘liqligi. Arab, fors, yunon va turk tilidagi qo‘lyozmalar va ularning tarix fanining rivojlanishidagi o‘rni.

O‘rta asrlarda yaratilgan asarlarning tarixshunoslik jihatidan tahlili. O‘rta asrlarda tarixnavislik maktablaridagi an’analalar. O‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlarning o‘rganilishi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida sharqshunoslardan qadimgi va o‘rta asrlar tarixining o‘rganilishi. XX asrda qadimgi va o‘rta asrlar tarixining yoritilishi. Mustaqillik yillarda qadimgi va o‘rta asrlar tarixiga oid tadqiqotlar.

Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi

Tadqiqotlarda Amir Temur shaxsi va uning siyosiy faoliyati masalalarining yoritilishi. «Temur tuzuklari»ning o‘rganilishi. Mirzo Ulug‘bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosining o‘rganilishi. Tarixning turli davrlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishga bo‘lgan munosabat.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti masalalarining yoritilishi. Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlarning o‘rganilishi.

Mustaqillik yillarda Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi. Temurshunos olimlarning ilmiy faoliyati.

Xorijiy davlatlarda temuriylar davriga oid tadqiqotlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi

O‘rta Osiyoda mahalliy tarixnavislikning shakllanishi va asosiyo‘nalishlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyotarixshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari. Tarixiy tadqiqotlardagi yondoshuvlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida Yevropada O‘rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar.

O‘rta Osiyo xonliklarining tashkil topishi, ma’muriy hududiy tuzilishi, boshqaruv tizimi, hukmron sulolalar. Xonliklar tarixining asosiyo‘bosqichlari.

Rossiya imperiyasining Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklariga harbiy tajovuzi. Qo‘qon xonligining tugatilishi. Buxoro va Xiva xonliklari siyosiy qaramlik davrida.

Vatan tarxshunosligida O‘rta Osiyo xonliklarini o‘rganishning asosiyo‘bosqichlari. Tarixiy tadqiqotlarda xonliklar xaqidagi bilimlarning aks etishi va ularga hukmron tuzum ta’siri.

Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklar tarixiga yangicha yondoshuvlar va ularning nazariy-konseptual, metodologik asoslari. Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy va tashqi aloqalari tarixiga oid tadqiqotlar. O‘rta Osiyo xonlari diplomatik yozishmalarining o‘rganilishi va ularning ayrim xususiyatlari. Xonliklardagi harbiy siyosat va qo‘shinlar tarixi. Shaharlar tarixining o‘rganilishi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan O‘rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarining o‘rganilishi.

XIX-XX asrning boshlarida O‘rta Osiyo tarixining o‘rganilishi

Sharqshunoslarning O‘rta Osyoning qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, etnografiyasi, epigrafikasi va numizmatikasiga oid tarixiy asarlari. XIX-XX asrning boshlaridayaratilgan tarixiy-etnografik asarlar.

Sharqshunoslар tomonidan O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalarining o‘rganilishi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixshunosligi. Davriy matbuotda xonliklar hayotiga oid ma’lumotlar. “Turkestanskiy sbornik” va statistik tadqiqotlarda Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari haqidagi ma’lumotlar.

Turkistonda bolsheviklar hukmronligi va uning xonliklarga ta’siri. Buxoro va Xiva xonliklarining tugatilishi.

Jadid mutafakkirlarining tarix, tarix fani va ta’limi hamda tarixshunoslik haqidagi dunyoqarashlari.

Sovet davrida O‘zbekistonda tarix fani

Sovet davri tarixshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari va nazariy konseptual asoslari. Sovet davri tadqiqotlarida O‘zbekiston tarixini bir yoqlama talqin etilishi.

XX asrning 20-30 yillarda tarix fani. O‘zbekistonda ilmiy muassasalar va oliy o‘quv yurtlarining tarixchi mutaxassislarni tayyorlashdagi o‘rni.

Tarix institutining tashkil etilishi. Tarix fakultetlari va kafedralarining ochilishi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi.

O‘zbekistonda sharqshunoslik. Sharqshunoslarning tarixshunoslikni rivojlanirishga qo‘sghan hissasi

O‘zbekistonda arxeologiya va etnografiyaga oid tadqiqotlar. Arxeolog va etnograflarning tarix fanining rivojlanishiga qo‘sghan hissasi. O‘rta Osiyolik allomalarining fan tarixi, madaniyat, O‘rta Osiyo xalqlari san’atiga oid qo‘lyozma manbalarini, ilmiy merosining o‘rganilishi.

Uch tomlik «O‘zbekiston xalqlari tarixi»ning birinchi nashri (1947-1950), to‘rt tomlik «O‘zbekiston tarixi», ikki tomlik «Samarqand tarixi»ning nashr etilishi.

O‘rta Osiyo xalqlarining xorijiy mamlakatlar bilan tarixiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarining o‘rganilishi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fanining rivojlanishi

Tarix fanida yangi dunyo qarashlar. Tarixga qiziqishning ortishi. O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov asarlarida O‘zbekiston tarixi bo‘yicha tadqiqot sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish» haqidagi (1998 yil) qarori.

1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi huzurida «O‘zbekistonning yangi tarixi» markazi tashkil etilishi. Markaz olimlari tomonidan 3 jildli «O‘zbekiston tarixi» kitobining nashr etilishi.

Tarix institutining ilmiy faoliyati. Tarixchilar tomonidan davriy, ilmiy, ilmiy-ommabop to‘plamlarning nashr etilishi. Ilmiy anjumanlar va ularda o‘zbek davlatchiligi tarixi masalalarining yortilishi. Zamonaviy arxeologiya, etnografiya va manbashunoslikning vazifalari.

Og‘zaki tarix. Tarixga bag‘ishlangan ilmiy jurnallarning O‘zbekiston tarixning yoritishdagi o‘rni.

O‘zbekistonda tarixshunoslik fanining alohida soha sifatida rivojlanishi

O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovni tarix fani metodologiyasi bo‘yicha qarashlari.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixshunoslik fani rivojida yangi davrning boshlanishi. Nazariy-metodologik masalalarning ishlab chiqilishi. Ilmiy maktablarning shakllanishi. “Tarixshunoslik o‘qishlari”. O‘zbekistonda tarixshunoslik fani va tarix fanidagi metodologiyalar. Mustaqillik davridagi o‘zgarishlar. Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarix fani metodologiyasini va tarix fani konsepsiyasini ishlab chiqarishdagi roli.

O‘zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlari ko‘lami, rivojlanishi. O‘rta Osiyo mutafakkirlari, tarixchilari ilmiy merosini o‘rganish borasidagi keng qamrovdag‘i jarayonning boshlanishi. Tarix sohasidagi tadqiqotlarida yangi shakl va janrlarning vujudga kelishi. Tadqiqotlarning metodologiyasi masalalari.

Mashhur mahalliy tarixchilar ilmiy merosiga yangicha qarashlar. O‘zbek davlatchiligi tarixining yangi konsepsiyasining paydo bo‘lishi. O‘zbek davlatchilik tarixining kompleks ravishda o‘rganilishi. O‘rta Osiyo tarixinining turli davrlarining tarixshunoslik jihatidan yoritilishi. Muammoviy tarixshunoslik masalalalari.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi markazining tashkil etilishi.Zamonaviy tarixshunoslik va istiqboldagi vazifalar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston..2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
5. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
6. Axmedjanov G.A. Rossiyskaya imperiya v Sredney Azii. Istoriya i istoriografiya kolonialnoy politiki sarizma v Turkestane (1867-1917). – T.: Fan, 1995.
7. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. (qadimgi zamon va O‘rta asrlar). – T., 2001.
8. Axmedov B.A. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XV-XVIII vv. – T.: Fan, 1985.
9. Axunova M.A., Lunin B.V. Istoriya istoricheskoy nauki v Uzbekistane. – T.: Fan, 1970.
10. Istoriya Uzbekistana v istochnikax. Izvestiya puteshestvennikov geografov i uchenix XVIIPerv. pol. Sostavitel B.V.Lunin. – T.: Fan, 1988.
11. Samarqand shahrining umumbashariy madaniyt araqqiyot tarixida tutgan o‘rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – T.: Fan, 2007.
12. Caidboboyev Z. Yevropada O‘rta Osiyoga oid tarixiy-kartografik ma’lumotlar (XVI-XIX asrlar).–T.: Fan, 2008.
13. Sobraniye Vostochnykh rukopisey Instituta vostokovedeniya AN RUz. I-XIt. – T., 1952-1987.
14. Tarixiy manbashunoslik / O‘quv qo‘llanma. Tuzuvchilar A.A.Madraimov, G.S.Fuzailova.–T.: Fan, 2006.

- 15.Tarixiy manbashunoslik muammolari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2008, 2013.
- 16.Axmedjanov G.A. Rossiyskaya imperiya v Sredney Azii. Istorya i istoriografiya kolonialnoy politiki sarizma v Turkestane (1867-1917). – T.: Fan, 1995.
- 17.Alimova D., Lunin B. Istorya i sisteme Akademii nauk Ryespubliki Uzbekistan (1943-1993). // ONU. 1993. – №8. – S. 70-78.
- 18.Alimova D., Lunin B. Raboty istoriografov Respubliki Uzbekistan. // Otechestvennaya istoriya. – M., 1997. № 2. – S. 136-138.;
- 19.Axmedov B.A. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XV-XVIII vv. – T.: Fan, 1985.
- 20.Axunova M.A., Lunin B.V. Istorya istoricheskoy nauki v Uzbekistane. – T.: Fan, 1970.
- 21.Germanov V., Maxkamova N. Istoryograficheskiye issledovaniya v Institute istorii Akademii Nauk Respubliki Uzbekistan // O'zbekiston tarixi, 2003. – №4. – S. 49-61.
- 22.Rtveladze E. K zarubejnnoy istoriografii Xivyy // O'IF, 1997. – № 7-8. – S. 112-113.
- 23.Saidkulov T.S.Ocherki istoriografii istorii narodov Sredney Azii. Chast I. – T.:O'qituvchi, 1990.
- 24.Tarixiy manbashunoslik muammolari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2008, 2013.
- 25.To'xtaxo'jayeva M. Pedagogika. –T.: O'zbekitson faylasuflar jamiyat. 2010.
- 26.O'zbekistonda tarix fani: yutuqlar va rivojlanish muammolari. Tarixshunoslik o'qishlari materiallari. Istoricheskaya nauka v Uzbekistane: dostijeniya i problemы razvitiya. Materialy istoriograficheskix chteniy–2004. II – qism. –Toshkent, 2006.
- 27.O'zbekistonning islom sivilizasiyasiga qo'shghanhissasi // Xalqaro konferensiya materiallari. –Toshkent-Samarqand: ImomBuxoriy respublika ilmiy-ma'rifiymarkazinashriyoti, 2007.

Baholash mezoni

2021/2022 o‘quv yili 5A120304 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari (mamlakatlar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligiga kiruvchi abituriyentlar uchun mazkur dasturga asosan keltirilgan umumkasbiy fanlar bo‘yicha: jami - 50 ta savol TEST tuzib kiritiladi va ularning har bir berilgan to‘g‘ri javobiga 2.0 balldan beriladi, jami maksimal ball 100 ballni tashkil qiladi, test savollarini yechish uchun 90 daqiqa vaqt ajratiladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo‘yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash hay`atiga natijalar e’lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo`lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.